

TA'LIM TIZIMINI SAMARALI BOSHQARISHDA TA'LIM KLASSTERLARI, MAHALLA, OILA HAMKORLIGI

Niyozova Ra'no

*A.A Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti
biologiya fani katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim tizimini boshqarishda mahalla, oila hamda ta'lim klasterlarining ahamiyati, uzviy bog'liqligini ahamiyati hamda qilinayotgan ishlar haqida so'z yuritiladi va ularga yangicha yondashuv usullari yoritiladi.

Annotation. This article will talk about the importance of Neighborhood, Family and educational clusters in the management of the educational system, the importance of their inextricable connection and the work done, and will cover the methods of a new approach to them.

Kalit so'zlar: muassasa, ta'lim, tarbiya, mahalla, boshqaruv, hamkorlik

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lini tanlagan mamlakatimizda oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi va unda shaxs tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatuvchi milliy qadriyatlar yil sayin qadr topib, nufuzi oshib bormoqda. Buning asosiy sababi davlatimiz tomonidan ijtimoiy institutlarga har tomonlama e'tibor qaratilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan mustaqillik bergan imkoniyat tufayli qo'lga kiritilgan milliy qadriyatlarning qayta tiklanayotganligidir. Shu ma'noda olib qaralganda, ijtimoiy institutlar va uning muammolari bo'yicha ilmiy asoslangan tadqiqotlarning yuzaga kelishi dolzarb ahamiyatga molik bo'lib qolaveradi.

Tarbiya jarayoni ishtirokchilari sa'yi harakatlarini birlashtirish maqsadida 1993-yilda ishlab chiqilgan "Oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi" Kontseptsiyasi yoshlarni istiqloq g'oyalariga sadoqatli, ma'naviy barkamol, vatanparvar qilib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida dasturulamal bo'ldi.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'lim-tarbiya sohasiga juda katta o'zgarishlar kiritmoqda. Shu jumladan oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim muassasalarini keskin ko'payib borayotganini misol qilish mumkin. Shu borada prezident maktablari, xususiy universitetlar faoliyat yuritib boshlashlari ta'lim sohasidagi o'zgarishlar desak mubolag'a bo'lmaydi. Yosh avlodga bu imkoniyatlardan to'laqonli foydalanishni o'rgatish o'qituvchilar zimmasiga yuklatilgan. Albatta faqatgina o'qituvchi emas balki o'quvchining ota-onalarini ham ma'suliyatlaridan biri hisoblanadi.

O'qituvchi boshlang'ich sinflardan o'quvchilarga ta'lim-tarbiya jarayonida bo'layotgan yangiliklar haqida ma'lumot berib borishlari o'quvchilarni fikrini

o‘stirishga xizmat qiladi. O‘qituvchi yosh avlodni tarbiyalash jarayonida ota-ona bilan birgalikda ishlash hamkorligini yo‘lga qoyib olishi zarur. O‘qituvchi qanday qilib ota-onalar bilan hamkorlikni o‘rnatishi kerak? Sinf rahbari ota-onalar bilan olib boradigan ishlariga quyidagi vazifalarni hal qiladi:

1. Ota-onalar bilan yaqindan aloqa o‘rnatadi va aloqani doimo mustahkamlab boradi;
2. O‘quvchiga nisbatan maktabning va oilaning yagona talablar qo‘yishga erishadi;
3. Sinf ota-onalar jamoasini tashkil etib, ularning sinfdagi tarbiyaviy ishlariga faol qatnashishlarini ta‘minlaydi;
4. Ota-onalar o‘rtasida pedagogik bilimlarni tarqatadi va ularning pedagogik madaniyatini yuqori darajaga ko‘taradi;
5. Sinfga otaliq qilayotgan tashkilotlar, oila va maktabga yordam beruvchi tashkilotlar bilan aloqa o‘rnatadi va ularni sinfdagi tarbiyaviy ishlarga jalb qiladi.

Ota-onalar bilan ish shakllari va usullarini tanlashni odatda sinf rahbari o‘z shaxsiy xususiyatlari tajribasini, o‘quvchilarning oilalarida vujudga kelgan o‘ziga xos xususiyatlarni, ota-onalarning bilim va tajribasini, tarbiyalanuvchilarni tarbiyalashda yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan xatolar va qiyinchiliklarni, fe‘l-atvor xususiyatlarini, o‘quv muassasasi pedagoglar jamoasidagi muhitni, ota-onalar bilan ish olib borishda tarkib topgan an‘analarni va hokazolarni hisobga olib belgilaydi, tajribaning ko‘rsatishicha, sinf rahbarining ota-onalar bilan hamkorligining ommaviy, sinf tarzidagi va yakka tartibdagi ish shakllarini oqilona birga qo‘shib olib borish, bunda uning mazmunida izchillikka rioya etish orqali erishiladi.

“Oila, mahalla, ta‘lim muassasasi hamkorligi” Kontseptsiasining asosiy maqsadi yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashda o‘zbek xalqining boy milliy, madaniy, tarixiy an‘analari, urf-odatlar va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, zamonaviy pedagogik texnologiyaning ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etish, shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligini ta‘minlash, ota-onalar, pedagoglar va mahalla faollarining umumiy hamda milliy pedagogik madaniyatni oshirish, respublika fuqarolari orasida milliy mafkuraviy tarbiya ishlarini takomillashtirishdan iboratdir¹.

Kontseptsiyada jamiyat taraqqiyotining ma‘naviy-axloqiy negizi bo‘lgan milliy va umuman insoniy qadriyatlar, milliy va umuminsoniy tarbiyaning o‘zaro aloqasi hamda muhim yo‘nalishlari belgilab olingan. Chunonchi, mahalla, oila va ta‘lim muassasasi hamkorligida milliy tarbiya yo‘nalishda yoshlarning o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g‘urur, millatlararo muloqot madaniyati, milliy mafkuraviy ongliklik, milliy odob, fidoyilik kabi fazilatlarni o‘zlashtira olishlari zarurligi ko‘rsatilgan bo‘lsa, umuminsoniy yo‘nalishda hamkorlikdagi pedagogik faoliyatning

¹ Pedagogika. J. Xasanboyeva, X. To‘raqulov, I. Alqarov, N. Usmonov «Noshir» Toshkent 2011. 34 b.

huquq, iqtisodiy, jismoniy, aqliy, estetik, ekologik, gigienik va boshqa tarbiya sohalarini qamrab olishi muhim ekanligiga e'tibor qaratilgan.

Oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligida quyidagi tamoyillar asosida yo'lga qo'yiladi:

1. Ta'lim va tarbiya sohasida hamkorlik jarayon ishtirokchilari harakatlarining ish birligi.

2. Tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg'unligi.

3. Hamkorlik jarayoni sub'ektlarining teng huquqliligi va yuksak mas'uliyati.

4. Faoliyat jarayonida millat va davlat manfaatlarini ustuvorligi.

5. Hamkorlikning ilmiy asoslanganligi.

O'zbekistonda sog'lom avlodni tarbiyalashda oila-mahalla-ta'lim muassasasi hamkorligini ta'minlash samaralarining garovidir.

Bu borada hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan ustivor yo'nalishlar quyidagilardan iboratdir:

-oila, mahalla, ta'lim muassasalari hamkorligini ta'minlashning huquqiy bazasini takomillashtirish, hamkorlikning kuchayishiga qaratilgan uslubiy ta'minotni mustahkamlash;

-oilada yoshlar va ota-onalarning ijtimoiy faolligini oshirish;

-o'quvchi yoshlarga ta'lim berish, ularni tarbiyalash, iqtidorli yoshlarni qo'llabquvvatlash, ularni qiziqishlari bo'yicha kasbga yo'naltirish;

-ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llabquvvatlash;

-voyaga yetmagan o'smirlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va nazoratsizlikning oldini olish bo'yicha profilaktik tadbirlar samaradorligini oshirish;

-yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ularni jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga keng jalb etish orqali sog'lom oilaga tayyorlash;

-barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni mazmunan takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish mexanizmini yaratish;

-sog'lom avlodni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari va zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish.

O'zaro hamkorlik ishlarini boshqarish uchun joylarda o'z tarkibiga mahallalar faollari, obro'li ota-onalardan, o'quv-tarbiya muassasalarining tajribali xodimlaridan, mahalla hududida joylashgan turli tashkilotlarning vakillaridan iborat muvofiqlashtiruvchi jamoatchilik kengashlari tuziladi.

Jamoatchilik kengashining zimmasiga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib, uning tarkibida turli yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatadigan kichik tashabbuskor guruhlar shakllantiriladi. Jamoatchilik kengashi muayyan muddatga mo'ljallangan ish dasturiga ega bo'ladi. Mazkur dastur mahalla Fuqarolar yig'inining yig'ilishida rasman tasdiqlanishi zarur. Dasturda ko'rsatilgan tadbirlar rejasi davra suhbatlari, muayyan

mavzu yoki muammoga bag'ishlangan kengashlar, anjumanlar, mahalla aholisini birlashtiruvchi, ularni sog'lom turmush tarziga yetaklovchi ko'riktanlovlar, musobaqalar, bellashuvlar, uchrashuvlar va turli sanalarga bag'ishlangan anjuman yoki tantanalardan tashkil topishi mumkin.

Ta'lim va tarbiya sohasiga e'tiborni kuchaytirish, bu borada hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qonun va hujjatlarni, direktiv ko'rsatmalarni samarali bajarish uchun oila, mahalla, o'quv muassasasi hamkorligi faoliyati o'ziga xos pedagogik tizim, uslub va shakllarga ega bo'lishi zarur. O'tkazilgan tadbirlar har tomonlama puxta, shuning bilan qatnashchilarning yoshlariga mos pedagogik va psixologik mujassamlashgan, mantiqan teran, qiziqarli va ko'rgazmali, ta'sirchan, ommabop, amaliy jihatdan qisqa va lo'nda, estetik jihatdan keng ko'lamli bo'lishi kerak. Hamkorlikda olib borilayotgan ishlar mahalla hududidagi barcha yoshlar va toifadagi fuqarolarni qamrab olishi hamda ularning qiziqish va intilishlariga mos bo'lishi lozim.

Hamkorlik tadbirlarining mavzulari «Sog'lom avlod uchun», «Ota-onangga rahmat», «Odobinga balli», «Sog' tanda sog'lom aql», «Mehr chashmasi», «Qizlar ibosi», «Bir yigitga qirq, hunar oz», O'g'lim posbonim», «Hayot—ustoz, xalq—muallim», «O'zbekiston Vatanim manim!», «Milliy burch va mas'uliyat», «Oila saboqlari», «Oila etikasi», «Oila tinch-mahalla tinch», «Mustaqil hayot bo'sag'asida», «Askarlik -yigitlik o'quv muassasasi», «Oila baxti — Vatan baxti», «Sportchi oila», «Vatan ostonadan boshlanadi», «Biz kimmiz» kabi tadbirlardan iborat bo'lishi mumkin. Bahslar, bellashuvlar, uchrashuvlar va turli sanalarga bag'ishlangan anjuman va tantanalardan iborat bo'lishi mumkin.

Joriy qilingan jamoatchilik kengashi o'z faoliyati to'g'risida mahalla ahliga har chorakda bir marotaba hisobot beradi. Zarurat tug'ilganda o'quv-tarbiya muassasalari, mahalla faollari, mahalla hududida joylashgan tashkilot, korxona va idoralarning ta'lim-tarbiya yuzasidan olib borilayotgan ishlari to'g'risida hisobotlarini tinglab, ularga amaliy va nazariy yordam berishi ish samarasiga va uning izchilligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'z vakolatiga ko'ra Kengash mahalla hududida tashkil etilgan tadbirlar mazmuni va samaradorligini tahlil qiladi, ular yuzasidan uslubiy maslahatlar tayyorlab, bu haqida ommaviy axborot vositalarida xabarlar berib boradi. Kengash yosh avlodni tarbiyalashda mahalla, maktab va oila hamkorligi borasidagi masala va muammolarni mahalla hududidagi o'quv-tarbiya muassasalari, tashkilot va idoralari ishi rejalashtirilishi va amaliyot dasturlariga kiritilishida ular o'rtasida o'zaro hamjihatlikka erishishni ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda davlat dasturining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi davlat va jamoat tashkilotlarining mustahkam hamkorligi, ta'lim muassasalari mutaxassislari, oilalar, mahalla faollari, umuman barcha fuqarolarning faol ishtirokini taqozo etadi.

Bolalar - kelajagimiz ekan, ularni ham jismonan, ruhan, ham ma'nan sog'lom bo'lib kamolga yetkazish asosiy vazifamizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.06.2012 yildagi "Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 175 -sonli qarori
2. O.Мусурмонова. "Оиламаънавияти – миллий ғурур" Ўқув қўлланма. Тошкент 1999.
3. О.Тўраева. Оилавий ҳаёт этикаси ва психологияси. Тошкент - 1990.
4. Pedagogika. J. Xasanboyeva, X. To'raqulov, I. Alqarov, N. Usmonov «Noshir» Toshkent2011.
5. Yo'ldoshev J. «Zamonaviy o'zbek oilalarida o'smir bolalar shaxsining shakllanishi» nomzodlik dissertatsiyasi, Toshkent. 2002